



## **Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi**

*2025- yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot*

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


### **I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2025- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 695 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 187 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 8 508 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 8 384,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 109,6 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 169,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 5,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7 214,7 mlrd so'm (o'sish sur'ati 10,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 760,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 11,7 %) tashkil etdi.

#### **Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)**



**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi  
(ulushi foizda)**



**II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2025- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 756 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 57 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 699 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 11 269,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 9 070,0 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 4,2 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 80,5 % ni tashkil qildi.


**Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)**





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Bo'stonliq (119,0 %), Qibray (118,4 %) va Zanqiota tumanlari (117,1 %) hamda Olmaliq (116,9 %) shahrida kuzatildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**






### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 564 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 14 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 550 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 941,4 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 11,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 76,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

#### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

**Chop etishga masul:**  
Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi

**Bo'lim boshlig'i:**  
J.Rafikov  
Tel: +998712034500 (4540)

**Ijrochi:** M.Mirzokirov  
Tel: +998712034500 (4541)

**Manzil:** Toshkent shahar  
Mirobod tumani Yangi Qo'yliq  
ko'chasi, 2-uy